


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

QORAQALPOG'ISTON TIBBIYOT INSTITUTI



**TEZ TIBBIY YORDAM**  
**O'QUV (MODUL) DASTURI**

Bilim sohasi:  
Ta'lim sohasi:  
Ta'lim yo'nalishi:

900 000 — Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot  
910 000 — Sog'liqni saqlash  
60910100 — Stomatologiya ishi

**Tuzuvchilar:**

FIO	Ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni
Sabirova A.T.	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti «Xirurgik kasalliklar va transplantologiya» kafedrasi assistenti

**Taqrizchilar:**

FIO	Ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni
Ichki taqrizchi	Mamutov. Sh.I - Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti "Patologiya" kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi.
Tashqi taqrizchi	Kim V.Y. - RSHTYIM QQF Anesteziyologiya va reanimasiya bo'lim mudiri.

O'quv dasturi Qoraqalpog'iston tibbiyot institutida ishlab chiqilgan.

**Top -300 kiruvchi Ottava universiteti Stomatologiya fakulteti  
Tez tibbiy yordam fani namunaviy dastur asosida qo'shimcha mavzular  
kiritilgan.**

Fanning o'quv dasturi Qoraqalpog'iston tibbiyot institutidaning  
" 28 " 08 2025 yildagi .I.-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Fan/Modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS-Kreditlar
Tez tibbiy yordam	2025-2026	VII	2
Fan/Modul turi	Ta'lim tili		
Tez tibbiy yordam	Qoraqalpog' Uzbek / Rus		
	Fan/Modul nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
1.	Tez tibbiy yordam	30	30
	<p><b>I. Fanning/Modulning mazmuni</b></p> <p>Ushbu modul dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yunalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu modul asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayoniga tadqiq etib, talabani nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni fantomlarda bajarishga o'rgatib va o'rtirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar o'rqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan xolda mustaqil ravishda bemorlarni tashxislash va qabul qilishga zamin yaratib beradi. Modul dasturining maqsad va vazifalarini echimi yakunida talaba gorizontal va vertikal integratsiya jarayonlarida olgan bilim va amaliy ko'nikmalarni klinik uyg'unlashtirib, etuk, raqobatbardosh, mustaqil klinik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan umumiy amaliyot stomatologi bo'lib shakillanadi. Ushbu modul shoshilinch va terminal holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlari, shikastlanishlarda birinchi vrachlik tibbiy yordamni ko'rsatish xaqida tushuncha beradi va talabalarni shunday holatlarda to'g'ri yul tutishga o'rgatadi. Davolash jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan shoshilinch holatlar, simptomlarni zudlik bilan aniqlash, reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish bo'yicha bilimlar beradi. Mazkur modul o'quv rejadagi tibbiy biologiya, biofizika, tibbiy kimyo, biokimyo, odam anatomiyasi, fiziologiya, gistologiya, mikrobiologiya, klinik anatomiya (operativ xirurgiya va topografik anatomiya), xirurgiya, neyroxirurgiya, terapiya, klinik allergologiya, fizioterapiya, klinik farmakologiya modullaridan o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanadi. Modul keyinchalik og'iz bushligi shilliq parda kasalliklari, bolalar og'iz bushligi shilliq qavati kasalliklari, parodontologiya, yuz-jag' jarroxligi, to'liq olinadigan tishlar bilan protezlash modullari uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.</p>		
2.			

### 1.1. Fanni/Modulni o'qitishdan maqsad –

bulajak umumiy amaliyot stomatologlarini o'tkir va surunkali kasalliklarda, shoshilinch va terminal holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlarini, ularning inson xayot faoliyatida aks etishi, shikastlanishlarda birinchi vrachlik tibbiy yordamini ko'rsatish, stomatolog shifokorlarida klinik fikrlash, kasallik va uning belgilarini asoslashni o'rgatish. Olgan bilim va ko'nikmalarini tibbiyotda qo'llay bilishlari uchun asosiy bilim berish, bemorlarni tekshirish usullarini va shu o'rqali organizm holatiga baho bera olishni o'rgatish va mustaqil ravishda profliaktik hamda birinchi tibbiy yordam ko'rsata oladigan umumiy amaliyot stomatologini tayyorlash.

### 1.2. Fanning/Modulning vazifalari –

- tez tibbiy yordam moduli xaqida tushuncha berish;
- talabalarining nazariy ma'lumotidan boshlangich amaliy ko'nikmalarni bajarish darajasiga qadamma-qadam o'rgatish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiiq etib, talabani klinik fikrlash va bilimni saqlash darajasini oshirish;
- zamonaviy tekshirish usullari xaqida tushunchaga ega bulish;
- shoshilinch va terminal holatlar, shikastlanishlar uchraydigan a'zolarining klinik anatomiyasi, tekshirish usullari va a'zolar faoliyatini aniqlashni o'rgatish;
- shikastlanishlar, shoshilinch va terminal holatlar diagnostikasi borasida tushuncha berish;
- stomatologik bemorlarni tekshirish, davolash jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan shoshilinch holatlar bilan tanishtirish, simptomlarini aniqlash, reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish;
- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;
- talabaning klinik fikrlash qobiliyatini ustirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko'nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom ustlubida avtomatizm darajasiga etkazish.

### II. Fan/Modul o'qitilishining natijalari

#### Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- *haqida tasavvurga ega bo'lishi (bilim);*
- bemor yoki shikastlanib qolgan kishi tushgan sharoitga baho berish va shikastlantiruvchi omillar ta'sirini tuxtatish choralarini ko'rish;
- kasallangan yoki shikastlangan kishi axvoriga tez va to'g'ri baho berishni;
- shikast yoki tusatdan kasallanish yuz bergan vaqtni va joyni aniqlashni;
- kasallangan (shikastlangan)da bexush holatda yotganda, shoshilinch yoki terminal holatlarda jabrlanganlarni ko'zdan kechirishda uning tirik yoki o'likligi aniqlashni;

- kasallangan, shikastlangan kishini ko'zdan kechirish davomida tez tibbiy yordamning hajmi va uni nimadan boshlash kerakligini aniqlashni;

- aniq sharoitlar, mavjud holatlar va imqoniyatlarga asoslangan xolda tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun qanday vositalar zarurligini aniqlashni;

- tez tibbiy yordam ko'rsatib, shikastlangan kishini transportirovkaga tayyorlashni;

- favqulotda vaziyatda tug'ri qaror qabul qilish, aholini tinchlantirish va aniq xarakat qilishga o'rgatishni;

- *bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma);* shaxsiy ximoya vositalari, shaxsiy tibbiy vositalardan foydalanish va tez tibbiy yordam ko'rsatish guruxi ishiga raxbarlik qilishni;

- o'tkir yurak qon tomir, o'tkir nafas etishmovchiligi, astmatik status, o'tkir bosh miya qon aylanishi buzilishi, gipertonik kriz, o'pka arteriyasi tromboemboliyasida kasallikning xarakteri va turini qisqa vaqt ichida farqlashni;

- o'tkir yurak qon tomir, o'tkir nafas etishmovchiligi, bronxial astma, o'tkir bosh miya qon aylanishi buzilishi, gipertonik kriz, o'pka arteriyasi tromboemboliyasida zudlik bilan bemorlarga tibbiy tez yordam ko'rsatishni;

- o'tkir nafas etishmovchiligi darajasini aniqlashni;

- kuchli ta'sirlovchi zaxarli moddalar va ulardan ximoyalashni;

- kasal yoki shikastlangan kishini davolash muassasasiga tezda olib borch (transportirovka qilish)ni;

- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni

- *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).*

- me'dani zondlash;

- siydik qopiga kateter qoyish;

- Esmarx jgutini qoyish;

- yuqori nafas yullarida yot jism bo'lganda Geymlix usulini qo'llash;

- sun'iy nafas olishni o'tkazish;

- yurakni bilvosita massaj qilish.

### III. Asosiy nazariy qism

#### 3.1. Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari ro'yxati:

**1-mavzu.** Tez tibbiy yordam moduli va uning vazifalari. SHoshilinch va terminal holatlar xaqida tushuncha. SHoshilinch va terminal holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatishning me'yoriy-xuqiiqiy asoslari.

**2-mavzu.** SHikastlanishlarda tez tibbiy yordam. Travmatik shok. SHokning patogenetik turlari, darajalari, bosqichlari va fazalari. Klinikasi, diagnostikasi va tez tibbiy yordam ko'rsatish.

**3-mavzu.** Elektrotravma. Quyish. Termik va kimyoviy quyish. Sovuq urishi. Sovuq urishi darajalari. Qon ketishi, klassifikatsiyasi, klinikasi,

diagnostikasi, tez tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.

**IV. Amaliy (seminar) mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

1. mavzu: Shoshilinch va terminal holatlar, ularning turlari, klassifikatsiyasi.
2. mavzu: Yurak qon tomir tizimi o'tkir patologiyalari.
3. mavzu: Bolalar respirator kasalliklari (Astma, bronxiolit, xrip)
4. mavzu: Nafas tizimining o'tkir patologiyalari. O'pka arteriyalari tromboemboliyasi.
5. mavzu: Anafilaksiya va allergik reaksiyalarni davolash.
6. mavzu: Qon ketishi, klassifikatsiyasi, klinikasi, diagnostikasi, tez tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar, grafik organayzerlar qo'llaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

**V. Fanni/Modulni o'qitish davomida egallanadigan kompetensiyalar va amaliy ko'nikmalar.**

**5.1. Fan/Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:**

UK 1. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni taxlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bulish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda xarakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va axloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

**5.2. Fan/Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:**

UKK 1. Me'dani zondlash.

UKK 2. Siydik qopiga kateter qoyish;

UKK 3. Esmarx jgutini qoyish;

UKK 4. Yuqori nafas yullarida yot jism bo'lganda Geymilix usulini

qo'llash;

UKK 5. Suniy nafas olishni o'tkazish;

UKK 6. Yurakni bilvosita massaj qilish.

#### **VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular ro'yxati:

1. Tez tibbiy yordam va uning strukturalari xaqida tushuncha.
2. Jaroxatlanganlarni transportda tashish qoidalari. Kriminal holatlarda tibbiy tez yordam xodimi xarakati va vazifalari.
3. SHok va uning turlari. Gipovolemik shok. Anafilaktik shok. Gemorragik shok.
4. Kuyish shoki. Elektrotravma.
5. Bronxial astma diagnostikasi, klinikasi. Astmatik holat (astmali status) xaqida tushuncha. Bronxial astmada birinchi yordam vositalari.
6. O'tkir yurak etishmovchiligida tez tibbiy yordam berish. Gipertonik kriz xaqida tushuncha. Gipertonik krizda tez tibbiy yordam.
7. O'tkir bosh miya qon aylanishi buzilishi (UBMAB) xaqida tushuncha. UBMAB sabablari, klinik manzarasi, diagnostikasini aytib berish. Insultning ishemik va gemorragik turlari tarifi. O'tkir nafas etishmovchiligi xaqida tushuncha.
8. O'pka arteriyasi tromboemboliyasi (UATE) xaqida tushuncha. O'pka arteriyasi tromboemboliyasida tez tibbiy yordam berish xaqida tushuncha.

#### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:**

Tez tibbiy yordam fani bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- hisoblash-chizma mustaqil ishini bajarish;
- badiiy-ijodiy ishini bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan masalaga aniq yechim topish va uni tahlil etish;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- berilgan mavzuni chuqur o'rganish va yuqori darajada tahlil qilish;
- tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;

<ul style="list-style-type: none"> <li>• hisob-grafik-loyihalash ishlanmalarini tayyorlash;</li> <li>• kasallik tarixini himoya qilish, ekspertiza bayonnomasini tayyorlash;</li> <li>• amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalash ko'nikmasini shakllantirish;</li> <li>• ilmiy maqola, tezislari va ma'ruza tayyorlash; amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.</li> </ul> <p><b>Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:</b></p> <p>Tez tibbiy yordam fani bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.</p> <p>Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlari aks ettirish;</li> <li>-aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, bolalarni yoshi va sog'lig'iga bog'liq ovqatlanirish tamoyillari haqida suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;</li> <li>-o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;</li> <li>- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish;</li> <li>-fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etish;</li> <li>- mustaqil ta'limni topshirish muddati o'tgach vazifalar qabul qilinmasligini, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirib olinish)ga yo'l qo'ymasligi doimo yodda tutish;</li> <li>-kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish.</li> </ul>	<p><b>VII. Tez tibbiy yordam fanni/modulni o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari va metodlari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Interfaol o'yinlar;</li> <li>• Seminar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• Guruhlarda ishlash;</li> <li>• Taqdimotlarni kiritish;</li> <li>• Individual loyihalash;</li> <li>• Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalash;</li> </ul>
--	---

<ul style="list-style-type: none"> <li>• Keys texnologiya, muammoga asoslangan ta'lim (PBL, CBL, POL)</li> </ul> <p><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Tez tibbiy yordam fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, nazorat turlari bo'yicha yozma, og'zaki, test va OSKI topshiriqlarini muvaffaqiyatli topshirish.</p>	<p><b>IX. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar, hamda axborot manbalari ro'yxati</b></p> <p><b>9.1. Asosiy adabiyotlar ro'yxati:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Rizaev M.N., Mavlyanov I.R., Mirtursunov O.R. Birinchi tibbiy yordam, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2014 y.</li> <li>2. Nazirov F.G., Agzamxodjaev S.S., Tancheva L.N., Stratulenko S.L., SHamsutdinova D.SH. Standarti okazaniya meditsinskoy pomoshi na dogospitalnogo etape. Toshkent. 2001 g.</li> </ol> <p><b>9.2. Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Das S. A manual clinical surgery. Special investigations and differential diagnosis. 11 th edition. Calcutta: Das. 2014 u.</li> <li>2. John Lumley et all. Demonstrations of physical signs in clinical surgery. 19 th edition. "CRC Press". 2013 u.</li> <li>3. Peter F. Lawrence. Essentials of general surgery. 15 th edition. "Lippincott Williams &amp; Wilkins". 2013 u.</li> <li>4. Gadaev A. G. Umumiy amaliyot vrachlari uchun ma'ruzalar. Toshkent. 2009 y.</li> <li>5. Nazirov F.G., Gadaev A.G. Umumiy amaliyot vrachlari uchun qo'llanma. Moskva. 2007 y.</li> <li>6. Gaydarov F.O., Ermatov SH.E. Ichki kasalliklar. Darslik. Toshkent. 2004 y.</li> <li>7. Avakov V.E., Vayman M.A. Kriticheskie i neotlojnye sostoyaniya v meditsine, Uchebnoe posobie. Moskva. 2002 g.</li> <li>8. Xozirgi zamon sharoitlarida fukaro muxofazasining dolzarb muammolari. UzR FVV (ilmiy-amaliy anjuman materiallari). Toshkent. 2001 y.</li> <li>9. Grineva M.V., Ershova I.N. Spravochnik vracha skoroy i neotlojnoj meditsinskoy pomoshi. Sankt-Peterburg. 2000 g.</li> </ol>
--	---

**9.3. Internet saytlari:**

1. [www.tdsi.uz](http://www.tdsi.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.info@minzdrav.uz](mailto:www.info@minzdrav.uz)
4. [www.vitebsk.by](http://www.vitebsk.by)
5. <http://www.labirint.ru/books/570674/>
6. <http://www.labirint.ru/books/570674/>
7. <http://www.labirint.ru/books/569902/>
8. <http://www.labirint.ru/books/569744/>

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:

Abdullaeva N.Dj

I- tibbiyot fakulteti dekani:

Xojambergenov Q.M.

Kafedra mudiri, t.f.n:

Begaliyev S.M.

6.